

PUDRAT SHARTNOMASI № 2

«21» dekabr 2022 y

Peshku tumani

«ELIT STORY QURILISH MONTAJ» MCHJ keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi. Uzining ustavi asosida ish yurituvchi raxbari **O.Hamdamiyov** nomidan, bir tomondan va **Peshku tuman 2-son bolalar o'smirlar sport maktabi** keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi raxbar **I.Jo'raev** nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1 «Pudratchi» ushbu shartnoma buyicha tuzilgan smeta loyixa xujjatlariga asosan kurilish ishlarini «Buyurtmachi»ning buyurtmasi asosida **Peshku tuman 2-son bolalar o'smirlar sport maktabiga qarashli 1-bo'lim binosini mukammal ta'mirlash ishlari** bajarishni, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar.

Ushbu shartnomaning umumiy summasi tuzilgan smeta loyixa xujjatlaridan kelib chikib **QQS bilan 213 965 000 (Ikk yuz o'n uch million to'qqiz yuz oltmish besh ming)** so'mni tashkil etadi.

2. SHARTNOMA BUYICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. "Buyurtmachi" tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati **QQS bilan 213 965 000 (Ikk yuz o'n uch million to'qqiz yuz oltmish besh ming)** so'mni tashkil qiladi.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 24 avgustdagi 241-sonli karoriga asosan byudjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo'yicha summasi bir milliard so'mgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan xak tulash nazarda tutilgan.

3. TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHlash, BAJARISH VA TUGATISH BUYICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi «21» dekabr 2022 yil.

3.2. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti «31» dekabr 2022 yil.

4 TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 3.2. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

4.2. Shartnomadagi avansni «Pudratchi» olgandan sung ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

4.3. «Buyurtmachi» tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga uzi tomonidan xarid kilingan ta'mirlash materiallarini taqdim kilishi mumkin.

4.4. Ta'mirlashni tuxtab kolganligi uchun sababchi bulgan tomon buning okibatida kelib chikadigan xar kandy kamomad yoki javobgarlikni uz zimmasiga oladi.

4.5. Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan sung ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Shartnoma bahosi **QQS bilan 213 965 000 (Ikk yuz o'n uch million to'qqiz yuz oltmish besh ming)** so'm bo'lgan ta'mirlash ishlari yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish.

5.2. Maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb kiladi.

5.3. Har haftaning dushanba kunida joriy haftada bajarilgan ta'mirlash montaj ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatlarni «Buyurtmachi»ga taqdim kilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga quyidagi tartibda jarima to'laydi:

Buyurtmachi tomonidan ob'ektni uz vaktida ishga tushirish buyicha majburiyatlar buzilgan bulsa Pudratchi

Buyurtmachiga muddati utkazib borilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan kismining 0,5 foizi mikdorida penya tulaydi, birok penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki kursatilmagan xizmatlar kiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Jarima sanksiyasi buyurtmachi tomonidan bildirilgan yozma ravishdagi da'vodan keyin 10 kun muddat mobaynida to'lanishi shart.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar tugrisida 2-sonli dalolatnomani tuzadi..

6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

6.1. Shartnomada kursatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, «Buyurtmachi» maxsus hisob-raqamidan xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning tulanmagan narxini 0,4% mikdorida «Pudratchiga» peni to'laydi. birok penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki kursatilmagan xizmatlar kiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

6.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

6.3. «Buyurtmachi» tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq 2-sonli dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi

7. TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISH

7.1. Barcha ishlar tulik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyixa xujjatlariga xamda kurilish me'yorlari, koidalari va texnika shartlariga muvofik barcha ishlarini bajarish sifatini; uz tomonidan kurilish (ta'mirlash) uchun kullaniladigan kurilish materiallari, asbab-uskunalar va butlovchi buyumlar, konsruksiya va tizimlar sifatini ularning loyixa xujjatlarida kursatilgan sertifikatsiyalariga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;

ishlarni kabul kili shva foydalanish kafolatli davri anilangan kamchiliklar va nuksonlarni uz vaktida bartaraf kilishini; ob'ektdan foydalanganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish kioidalari muvofikligini kafolatlaydi. Ob'ekt va unga kiradigan muxandislik tizimlari, asbab-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar kurilishi tugallangan ob'ektni kabul kilish olish tugrisidagi dalolatnomani imzolagan kundan **2022 yil 31 dekabr** kuniga kadar etib belgilanadi.

Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniklanib, ular bartaraf etilgunga kadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuksonlar aniklansa, u xolda kafolat muddati nuksonlarni bartaraf etish davrida uzaytiriladi. Nuksonlar Pudratchi tomonidan uning uz xisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuksonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasi kayd etiladi.

Agar Pudratchi belgilangan ishlardagi nuksonlar va chala ishlarni, kamchiliklarni dalolatnomada kursatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning 4- bulimida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab kolish xukukiga ega.

Pudratchi nuksonlar va chala ishlar kursatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan takdirda, ularni tekshirib chikish «Davraxitektkurilishnazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala buyicha iqtisodiy sudiga murojaat kilishini istisno etmaydi.

7. Ushbu shartnoma asosida kelib chikadigan xar kanday nizolar Uzbekiston Respublikasining amaldagi konunchiliklari talablariga asosan iqtisodiy sudlarida xal etiladi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1 Mazkur shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi hamda 2022 yil «31» dekabrgacha amalda bo'ladi.

8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

8.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.
- Fors-Major xolatlarida

9. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

9.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

9.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Ijrochi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

9.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

10. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

10.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyasga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiyas xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar. - Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-

harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

10.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 10.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiyas bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

11. SHARTNOMANING QONUNY KUCHGA KIRISHI

10.1. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-son "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomi, 2014 yil 1 yanvardagi Uzbekiston respublikasining Budget kodeksning 122 moddasi va O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlarining g'azna ijrosi qoidalari 2016 yil 22 dekabrda 2850-son, O'zbekiston Respublikasining Davlat xaridlari to'g'risidagi 2021 yil 22 apreldagi 684-sonli qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olinishi shartligi va faqat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kirishi nazarda tutilgan.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«PUDRATCHI»

«ELIT STORY QURILISH MONTAJ» MCHJ

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Peshku tumani
Tel./faks: _____
h/v: 20208000800873419001
Bank nomi:- ATB Qishloq qurilish bank
Buxoro BXO filiali
MFO: 01037 STIR: 305497715

«BUYURTMACHI»

Peshku tuman 2-son bolalar o'smirlar sport maktabi


(budgetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil: Peshku tuman M. Mirishkor Allayor qishlog'i
Tel./faks: _____
sh/hv*: 100022860062407083610135003
budgetdan mablag' oluvchi STIRi: 308203001
IFUT: 85510
G'aznachilik bo'linmasi nomi: Peshku tumani
bo'yicha G'aznachilik bulinmasi
G'azna h/v: 23402000300100001010
Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent shaxri
MFO: 00014
G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919

Rahbar:- O.Hamdorov

(F.I.SH)


(imzo)



Rahbar:- I. Jo'raev

(F.I.SH)

(imzo)



topu em: I. Jo'raev



Пешку туман 2-сон спорт мактабини капитал таъмирлаш ишларини бажариш буйича
МАНЗИЛИЙ ДАСТУР

№	Туман номи	Объектнинг жойлашган ури	Таъмирлашни бошлаш ва явуллаш йиллари	Лойҳалар қуввати тегишли улчи бирлиги (М2)	Пудрат шартномаси тузилган вақтда қурилишнинг умумий қиймати (млн сумма)	Қурилиш 2019 йил ҳалатдаги қолдиқ қиймати	Шу жумладан						Нанга туширилганга и қувватлар (М2)	2022 йил 1 ҳалатда утувчи объектлар бўйича қолдиқ қиймати	Лойҳа экспертизаси санаи ва №	Танлов савдолари тасдиқланган байнома санаи ва №	
							Жами капитал қурилмалар (млн и сумма)	Қурилиш монтаж ишлари	Жисолар	Бумртма харажатлар							
										Жами	Лойҳа	Экспертиза					2022 йил учун лойҳа таъмирлот ишларига (ПНП)
1	Пешку туман	бизнесини капитал таъмирлаш ишлари	15.11.2022 й 31.12.2022 й	438220000	438220000	438220000	438220000	438220000		0,23	0,2	0,03		438220000	438220000	№ 65228 14.10.2022 й	Йилнинг боти 10.11.2022

